



YOSHLAR O'RTASIDA GIYOHVANDLIKNING IJTIMOIIY OQIBATLARI VA HUQUQIY JAVOBGARLIK

Kambaro'va Baxtigul

Andijon shahar Yuridik Texnikumi 1 - bosqich Yuridik xizmat 144-guruh talabasi

Anotatsiya: Mazkur maqolada yoshlar o'rtasida giyohvandlikning ijtimoiy va psixologik oqibatlari hamda unga nisbatan belgilangan huquqiy javobgarlik masalalari yaratilgan. Tadqiqotda giyohvandlikning shaxs hayotida, ta'lim va mehnat faoliyatiga salbiy ta'siri taahlil qilinadi. Shuningdek, giyohvandlik vositalaridan foydalanish, saqlash yoki tarqatish holatlarida qo'llaniladigan qonuniy javobgarlik turlari haqida ma'lumot beriladi. Maqolam yoshlarni giyohvandlikdan ogohlantirish sog'lom turmush tarizi, targ'ib qilish hamda huquqiy ongni oshirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Giyohvandlik, yoshlar, ijtimoiy oqibat, psixologik oqibat, huquqiy javobgarlik, profilaktika, sog'lom turmush tarzi.

KIRISH

Giyohvandlik jamiyat rivojiga to'sqinlik qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari va psixotrop va kuchli ta'siri qiluvchi moddalar hamda preksorlarning qonunga xilof ravishda sotishi jahon hokimiyati oldinga jiddiy muammolarni ro'baro qilmoqda.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy savdosi dunyo jamoatchiligini tashvishga soladi. O'zbekiston qonunchligi ham bu sohada jiddiy yondashgan. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy Kodeskning 56 - moddasi "Giyohvandlik vositalari analoglari yoki psixotrop moddalarni - tayyorlash, olish, sotish, tashish yoki jo'natish.

Giyohvandlik vositalari analog yoki psixotrop moddalar musodara qilinib, jarima to'lanadi yoki o'n besh suktagacha ma'muriy qamoq jazosi sabab bo'ladi" hamda O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi 276 - moddasiga ko'ra "Giyohvandlik vositalari analog yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, egallash, tashish yoki jo'natish.

Bazaviy miqdorni ellik baravarigacha jarima yoki uchyilgacha axloq tuzatish yoki uch yilgacha ozodlikdan maxrum qilish bilan jazolanadi. Agar qayta sodir etilgan bo'lsa ikkiyildan bech yilgacha ozodlikdan cheklash yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan maxrum qilish jazosiga sabab bo'ladi".

Giyohvandlikka oid arganlarni nutqda qo'llash o'ziga xos haraktir kasb etadi. Ulardan ba'zilari maxfiy kodlar vazifasini bajaradi. Masalan: Nasha - quruq, ajal urug'i. Ko'knori - ko'k choy, ko'k yo'tal dori, issiqlik, ko'kat.

Kuchli afyun qizil vino. Gashish - saqich, chars, qalamcha. Qora dori - dori giyohvand modda, mol, yuk so'zlari bilan ifodalanadi.

Ushbu tasnifdagi iboralarni jinoiy tildagi tushunchalar giyohvand vositalarining savdosi bilan jinoyat tekshiruvi jarayonlarida dalil keltirishda ilova qilinadi.

Asosiy qisim



Xususan, so'ngi yillarda ko'plab mamlakatlarda va O'zbekiston Respublikasida ham giyohvandlik savdo - sotiqdari, istemol qilish ko'payib bormoqda. Eng achinarli holat shundaki giyohvandlik va psixotrop moddalari istemol qiluvchi yoshlar hisasi 74 % ni tashkul etadi. Jumladan talabalar 21% , maktab o'quvchilar 6 baravarga oshgan."World Papulation Review" ma'lumotlariga ko'ra O'zbekiston giyohvandlik moddalarni istemol qilish bo'yicha mamlakatlar reytingida 95-o'randan joy olgan. Bu borada Qozog'iston 8, Qirg'iziston 23 , Turkmaniston 41, Toj'ikiston 76 - o'rinda turibdi . Jahonda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar va kuchli ta'sir qiluvchi dorilarni yoshlar orasida keng tarqalyotgani kishini qayg'uiga soladi.

Prezident administratsiyasi huzuridagi Narkotiklarni nazorat qilish milliy markazi bo'lim boshlig'i "Mirsaid Haydarov" ning so'zlariga ko'ra "vafot etganlar orasida ayollar ham bor. Mirsaid Haydarovning gazetaga ma'lum qilishicha vafot etganlarning 6 nafari klassik narkotiklar (opioidlardan) 4 nafari (dorixona narkotiklardan) zaharlangan. Ularning 9 nafari ashaddiy giyohvand bo'lgan.

Tahlilga ko'ra vafot etganlarning o'rtacha yoshi 32 yoshni tashkil etgan. Hozirda O'zbekistonda giyohvandlik vositalarni iste'mol qiluvchi shaxslarning yoshi tobora kichrayib bormoqda. Bu illat yoshlar orasida ko'p kuzatilmoqda"deydi Markaz vakili. "Narkojinoyat sodir etgan ya'ni giyohvandlik vositalarini noqnuniy muomillasi bilan shug'ullangan shaxslar orasida ham yoshlar ulushi bir necha baravarga o'sgan. 2024-yil davomida narkojinoyatga qo'l urgan 9 mingdan ortiq shaxsning deyarli har uchinchi yoshlar (18-30 yosh orasidagi shaxslar) tashkil qiladi" deydi Mirsaid Haydarov. Avvalroq O'zbekiston bosh narkologi Zafarjon Ashurov narkologik bemorlarning dispanser hisobida turganlar orasida 10 yoshli bola ham borligini ma'lum qilgan edi.

Ularning takidlashicha, yoshlarning aksariyat giyohvandlikka psixolog muammolar sabab ruju qo'ymoqda. Toshkent shahar Hokimi Durdona Rahimova esa poytaxtda o'quvchilar orasida sintetik narkotiklarni iste'moli ko'payib boryotganini ta'kidlagan edi. "Buni inkor qilib bo'lmaydi" degan edi u. Giyohvand moddalarni iste'mol qilish tashqi belgilari.

Og'izdan so'lak chiqishi, ko'z qorachig'ining torayishi yoki kengayishi, yorug'likning reaksiyaning yo'qolishi, teri yuzasida rangi o'zgarishi, ong va fikr buzulishi, harakatdagi o'zgarishlar, alkagoldan mast bo'lgan odamdek ko'rinish, hissiy reaksiyalar mavjud vazifaga mos kelmasligi, nutqning o'zgarishi. Giyohvand moddalar organizmga ta'siri.

- Psixotrop vositalar (LSD, psillatsibin,MDMA) ko'z qorachig'ining kengayishi, uyqu buzilishi, qo'llar titrashi, terining quruqlashishi, o'zini nazorat qila olmaslik, dipersiya, orqa miyya to'qimalari buzilishi, galyutsiyalar, jigar sirozi, buyrak yetishmovchiligi, psixor, chizofreniya

- Kanabinoidlar (marixuana, gashish) Eyforiya, vaysash, qattiq oshlikka tashlanik, rang va tovushni idrok etish kuchayishi, xotiraning buzilishi, paranoya, bronxit, o'pka saratoni.

- Chekiladigan aralashmalar(spayizlar,sintetik, konobiniodlar, mix va boshqalar) Sababsiz kulish, diqatni jamlay olmaslik, atrof muhitni idrok etishning buzilishi, ruhiy kasalliklar, o'pka saratoni.



- Kokain(krek va koka barglari) ko'z qo'rachigi kengayishi, eyforiya, yurak urishi tezlashishi, terlash, bezovta bo'lish, uyqu buzilishi, artmiya, yurak xuruji, galyutsiyatsiyalar, shillik qavatning shikastlanishi, karlik.

- Opiatlar (gerain, dezamofin, opiy, metadon, ko'knori somoni) Nutq buzilishi, yurug'lik istagi, teri rangi oqarishi, buyrak yetishmasligi, paradontor,jigarning shikaslanishi, vena qon tomirlarining shikastlanishi.

Hozirgi vaqtda du yo bo'ylab 15 yoshdan 20 yoshgacha bo'lgan har 7 o'smirdan biri giyohvandlikdan aziyat chekmoqda. O'tgan yili davomida dunyo bo'ylab 250.000 kishi giyohvand moddalarni iste'mol qilib oqibatida vafot etgan. Mutahasislarni so'ngi hisob kitobiga ko'ra har bir giyohvand o'rtacha 13-15 kishini giyohvandlikka yetaklaydi. Bugungi kunda O'zbekistonda narkodispenserlar hisobida turganlar soni 600 dan oshmoqda. Giyohvandlikning 85 % narkotikani 15 yoshdan oldin ta'tib ko'rgan.

Giyohvandlikning o'rtacha 30 yoshi bo'ladi! Bunfan tashqari giyohvand moddalar muammolardan xolos etmaydi balki yangularini yaratadi! Fakt giyohvandning o'rtacha umr ko'rishi davomiligi 7 yil o'ylab ko'ring sizga 7 yilik azobli "Baxt"kerakmi?! O'zbekiston giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha 4 yilli milliy strategiyaqabul qilindi.

Bunda ichki ishlar organlarni narkotestlar bilan taminlanish, jinoyatlarni aniqlashda dronlardan foydalanish, mutahasislar tayyorlash hajmini 5 baravarga oshirish va boshqalar maqsad qilingan. Prezident 6 - may kuni giyohvandlik vositalar va psixotrop chek qo'yish ularni aholiga ta'sirni bartaraf etish strategik chora - tadbirlari to'g'ridagi farmonlarni imzoladi. Farmonga ko'ra giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha 2024 - 2028 yillarga mo'ljallangan strategiya qabul qilindi.

Milliy strategiya doirasida quyidagi maqsadlarga erishish barcha davlat organlari va tashkilotlarning ustuvor vazifasi sifatida belgilanadi. "Aholi ayniqsa, xotin - qizlar va yoshlar " giyohvandlikka qarshi immunitet"ni o'quvchi va talabalar orasida kuchli ta'sir qiluvchi dorilarni iste'mol qilishga, mutaxasis munosabatni psixopad moddalarni tarqalishini oldini olishga qaratilgan yangi ta'sirchan targ'ibot - tashviqot va tarbiyaviy profilaktik mexanizimlarni joriy etish". Farmoni bilan shuningdek giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar ustidan nazorat qilish bo'yicha Davlat kamissiyasi (Rais bosh vazir - Abdulla Oripov) va uning hududi kamissiyalari tarkiblari tasdiqladi.

Ushuu muammarni hal etish uchun avvalo yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini tag'ib qilish, bepul spor to'garaklari etiborini kuchaytirish zarur.

Hulosa: Giyohvandlikka qarshi kurash faqat jazash yoki taqiqlash bilan emas mehr etibor va sog'lom muhit yaratish orqali samarali kechadi. 21 - ars texnologiya va rivojlanish asri bo'lsada. Insonning his tug'ulari va ruhiy sog'ligi shu darajada torayib, keskinlashib bormoqda. Shu bois insonlar ijtimoiy hayotning shovqinlaridan biroz chekinib oddiy hayotga, atrofdagi yaqinlariga nazar tashlab, ular bilan ko'proq muloqotda bo'lishi va e'tiborli bo'lishi kerak.

Ozgina mexr ulashish ham katta o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Insonlar bir-birlariga mehr bilan yondashsalar, ulaning mansabi va ijtimoiy sharoitidan qat'iy nazar faqat giyohvandlik emas balki barcha muammolarga ham yechim topish mumkin. Chunki ozgina e'tiborsizlik katta muammolarga hattoki fojialarga olib keladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeks
2. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy Kodeks
3. Huquq va burch jurnali